

ARAB TILI GO'ZALLIKLARIDAN (“KELMOQ” SO‘ZI MISOLIDA)

Xamzayev Toxir Saparovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik
kafedrası stajor o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Arab tilining til xususiyatlari juda boy va sarmazmun ekanligini ko‘pchilik til mutaxasislari tan olishadi. Ammo o‘zbek tili ham o‘z davrida o‘zining beqiyos mavqega ega bo‘lganligini bobokalonlarimiz o‘z asarlarida qayd etishgan. Maqolada tilimizda qo‘llaniladigan ko‘pgina so‘zlar o‘z ma‘nosidan tashqari bir qancha ma‘nolarni ifodalashi, shuningdek ko‘pgina so‘zlar bir ma‘noga ishora qilishi va ularning orasida qo‘shimcha nozik ma‘no anglatish xususiyatlari mavjud ekanligi “kelmoq” – “جاء” so‘zi misolida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “o‘zib borayotgan til”, “Muhokamatul-lug‘otayn”, fors tilida mavjud bo‘lmagan 100 ta fe‘l, kelmoq - جاء, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “kelmoq” so‘zi, arab tilidagi “kelmoq” ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.

“Arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o‘zib borayotgan turk tilidir¹” deb aytgan mashhur qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit-turk” asarida. Shuningdek olimning “Javahirun-nahv fil-lug‘otit-turk” (Turkiy tillarning nahv sintaksis durdonalari, qoidalar) asari mavjud bo‘lganligi, ammo bizgacha yetib kelmaganligi haqidagi ma‘lumotlar yetib kelgan. Darhaqiqat, o‘zbek tilidagi so‘zlar son jihatidan boshqa ayrim tillardagi so‘zlardan kam bo‘lsa ham, ayrim shunday so‘zlar borki, ularni arab tilida, fors tilida yoki boshqa bir tilda ifodalashning imkoni yo‘q. Shunga o‘xshash ma‘lumotlarni o‘z vaqtida Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘otayn” asarida atroflicha izohlab bergan. Turkiy xalqlar haqida quyidagi fikrlari nihoyatda muhim: “Andoq ma‘lum bo‘lurki, turk sortdin tezfahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq bo‘lubdur va sort turkdin taaqqul va ilmida daqiqroq va kamolu fazl fikratida amiyqroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidqu safo va tuz niyatidin va sortlarning ilmu funun va

¹ Девони луғот ат-турк. Маҳмуд Кошғарий. – Тошкент, 2017. -Б. 14.



hikmatidin zohirdurur²” deydi. Shuningdek, forsiy va turkiy tilni qiyoslab, turkiy tildagi 100 ta fe’lni ifodalovchi soʻzlar fors tilida mavjud emas deydi: “Andoqki, quvormoq va quruqshamoq va usharmak va jiyjaymoq va oʻngdaymoq va chekkrimak va doʻmsaymoq ... va sirmamak va kanorkamak va sigʻriqmoq va sigʻinmoq va qilimoq va yolinmoq va munglanmoq ... va suxranmoq va siypamoq va qoralamoq va surkanmoq va kuymanmak va ingranmoq va tushalmak va mungʻaymoq ... qadamoq, chiqanmoq, kundurmak, sundurmak, suqlatmoq. Bu yuz lafzdurki, gʻarib maqosid adosida taʼyin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chogʻida kishi anga muhtoj boʻlur. Koʻpi andoqdurki, aslo aning mazmunin tafhim qilmoq boʻlmas va baʼziniki, anglatsa boʻlgay, har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmagʻuncha boʻlmas, ul dagʻi arabiy alfoz madadi bila va turk alfozida bu navʼ lafz koʻp topilur³”.

Hozirgi kunga kelib, internet, televideniya, sunʼiy intellekt kabi sohalar rivojlangan davrda yoshlar orasida kitob mutolaa qilish ancha kamayib bormoqda. Buning natijasida yoshlarda soʻz boyligi masalasi nuqsonli boʻlib qolmoqda, shu bilan birgalikda, koʻp hollarda sheva yoki lahjaga xos soʻzlarni koʻp ishlatish holatlari kuzatilmoqda. Aslida esa, oʻzbek tili juda boy va goʻzaldir. Misol tariqasida “kelmoq” soʻzini olsak, bu soʻzni tashrif buyurmoq, qadam ranjida qilmoq, yetib kelmoq kabi sinonimlari mavjud. Arab tilida ham bu soʻzni ifodalovchi bir qancha soʻzlar (أَتَى، قَبِلَ، أَقْدَمَ، حَضَرَ، زَارَ، طَرَقَ، غَشِيَ، وَافَى، وَرَدَ، وَقَدَّ، جَاءَ) boʻlib, ular oʻzaro maʼno ifodalash xususiyatlariga koʻra biroz farqlanadi. جَاءَ soʻzi arabcha-oʻzbekcha lugʻatlarda quyidagicha taʼriflangan⁴: 1) kelmoq, boʻlmoq, koʻrinmoq, tugʻilmoq. جَاءَ إِلَى الدُّنْيَا – dunyoga kelmoq. 2) yaqinlashmoq (kimgadir عَلَى). 3) yuz bermoq, sodir boʻlmoq, maʼlum boʻlmoq. 4) qilmoq, bajarmoq. 5) keltirmoq (nimanidir بِ), olib kelmoq (kimnidir بِ). 6) tarkibida boʻlmoq, hisoblanmoq, xabar qilinmoq (nimadadir فِي). ... وَقَدَّ جَاءَ فِي الْأَمْثَالِ أَنَّ – maqollarda kelishicha. Bu soʻz (جَاءَ) kelmoq maʼnosini ifodalaydigan soʻzlar ichida barcha til oʻrganuvchilar tomonidan dastlab oʻrganiladigan dominant soʻz hisoblanadi bizning nazdimizda. Bu soʻz qatnashgan bir qancha gaplarni koʻrib chiqsak:

² Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. (Шамсиев П.) – Тошкент, 1940. -Б. 3.

³ Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. (Шамсиев П.) – Тошкент, 1940. -Б. 4.

⁴ Ан-Наʼим Арабча-ўзбекча луғат. Тузувчилар: Носиров О., Юсупов М., Муҳиддинов М., Раҳматуллаев Ю., Нишонов А. – Тошкент, 2003. -Б. 151.



جاء الهواء الساخن بشكل استثنائي من الصحراء Sahrodan g'ayrioddiy issiq havo keldi.
جاء هذا الرجل ليصنع لك نظارة جديدة Bu kishi senga yangi ko'zoynak yasab berish uchun keldi.
هذا نوع خاص من الأوشحة جاء إلينا من دول الشرق Bu qilichning maxsus turi bizga sharq davlatlaridan (kirib) kelgan.

Misollardan ko'rinib turibdiki, جاء fe'li umumiy "kelmoq" ma'nosini ifodalamoqda. Faqatgina 3-gapda "kirib kelgan" ma'nosiga ishora qilmoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida "kelmoq" so'zining quyidagi ma'no anglatish xususiyatlari sanab o'tilgan⁵:

1) Yurish, uchish harakati yoki transport vositalari bilan so'zlovchiga qarama-qarshi tomon (joy)dan so'zlovchi turgan tomonga, joyga yo'l olmoq, yo'nalmoq; shu tomondagi biror joyga yetmoq: Poyezd keldi. ♦ Toshkentga mehmonlar kelyapti. ♦ Yolg'iz o'zim bir chetda turgan edim, sekin oldimga keldi. S. Siyoyev, "Yorug'lik".

2) So'zlovchi bo'lgan, turgan joyga yoki so'zlovchi tomondagi joyga yetmoq, shu joyda hozir bo'lmoq: Yoz fasllari dehqonchilik qiladi, sahar ketib, kech keladi. M. Ismoilov, "Farg'ona tong otguncha". ♦ Nimaga kelipti?... qani beri kel-chi. Yarashgani keliptimi? A. Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari".

3) Vaqt ma'noli so'z yoki so'z birikmasi bilan qo'llanganda, shuningdek, vaqt bilan mantiqan bog'liq narsani bildiruvchi so'z bilan qo'llanganda, shu so'z yoki so'z birikmasi ifodalagan payt, fursat, zamon va shu kabilarning yetganligini, boshlanishini bildiradi, "boshlanmoq", "yetib kelmoq", "yetishmoq" ma'nosini bildiradi: Yaxshi zamonlar keldi. Siz orzu qilgan kunlar ham keladi. Bahor keldi. ♦ O'zi ham, payti kelib, mana shu qizlarday dugonalari bilan yayrab-yashnab, qiyqirib o'ynay olarmikin? O'. Hoshimov, "Qalbingga quloq sol". ♦ O'zini ko'rsatib qo'yadigan fursat kelganini sezib, dona-dona qilib tushuntirishga kirishdi. K. Yashin, "Hamza".

4) Jo'nalish kelishigidagi ayrim so'zlar bilan qo'llanganda, shaxsning shu kelishikdagi so'z bildirgan ish, narsa-hodisada to'xtashini, shunday narsa-hodisa yuz berishini bildiradi: Shunday xulosaga kelmoq. Bir to'xtamga

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида (2006-2008). "К" ҳарфи. -Б. 348.



kelmoq. ♦ Muqaddam anjomlarini yig'ishtirib bo'lguncha, bir qarorga keldi-yu, chaqirdi. O'. Hoshimov, "Qalbingga quloq sol".

5) O'zi birikib kelgan so'z ifodalagan narsaning yuzaga kelishi, yuz berishi, qo'zg'alishi ma'nosini bildiradi: Rahmi kelmoq. ♦ Havasi kelmoq.

♦ Zavqi kelmoq. ♦ G'azabi kelmoq. ♦ G'ayirligi kelmoq. ♦ Mahmudaning xo'rliigi kelib, ko'zida yosh halqalandi. O'. Hoshimov, "Qalbingga quloq sol".

♦ Uning [Kumushning] yuzini o'pib tushgan suv tomchilari bilan ariq harakatga kelib chayqaldi. A. Qodiriy, "O'tgan kunlar".

6) O'zi birikib kelgan so'z bildirgan holatning bo'lishi ma'nosini bildiradi: G'olib kelmoq. ♦ Ma'qul kelmoq. ♦ Malol kelmoq. ♦ Chiqishi bilan nari eshikdan Sodiq ham ko'rinib qoldi-da, Otabek bilan to'qnash keldi. A. Qodiriy, "O'tgan kunlar".

7) Numerativ so'zli birikmalar tarkibida evazi numerativli so'zga evaz bo'ladigan miqdorni, shunga beriladigan (keladigan, olinadigan) narsani bildiradi: Bu pulga uch metr atlas keladi. ♦ Kosibning bir haftalik ishiga bir xalta don keladi. Oybek, "Tanlangan asarlar".

8) Yordamchi fe'l vazifasida. 1) bog'lama vazifasida "bo'lmoq" ma'nosida qo'llanadi: Eshakning yuki yengil kelsa, yotag'on bo'lar. Maqol. ♦ Sutsiz sigir suzag'on kelar. Maqol; 2) -gi qo'shimchali fe'lning shaxs-son shakli (-gim, -ging, -gisi) bilan qo'llanib, istak-xohish ifodalaydi: Ketgim kelyapti. ♦ Aytgisi kelyapti; 3) ravishdoshning -a(y), -(i)b qo'shimchali shakllari bilan qo'llanib, harakatning yo'lakay, davomli bajarilishi kabi ma'nolarni bildiradi: Kelishingda xabar ola kel. ♦ Xotiralarni yozib kelyapman.

Yuqoridagi kabi "kelmoq" so'zining ma'no anglatish qatorlarini yana davom ettirish mumkin. Biz kundalik turmushimizda qo'llaydigan bu so'zning shunchalik ko'p ma'no anglatish xususiyatiga ega ekanligiga e'tibor ham bermaganmiz. Arab tilida ham shu birgina so'z ko'plab ma'nolarni ifodalaydi. Kontekstga (matnga) qarab ko'chma ma'noda ham qo'llanilishi mumkin. Maqolada "kelmoq" so'zining qanday ma'nolarni ifodalashi bilan birga yana qanday so'zlar "kelmoq" ma'nosini ifodalashi haqida fikr va mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashamiz. Quyidagi so'zlar umumiy ma'noda "kelmoq" so'zini ifodalasa ham, ularning o'z ma'no anglatish xususiyatlari ham bor:



Yaqin joydan kelmoq جاء من مكان قريب	كَلَمُوْ	أَتَى
Uzoq joydan kelmoq جاء من مكان بعيد		قَدِمَ
Sog'inib, ishtiyoq bilan kelmoq جاء راغبا متحمسا		أَفْبَلَّ
Chaqiruvga (taklifga) asosan kelmoq جاء تلبية لدعوة		حَضَرَ
O'zaro aloqalarni yaxshilash, mehr-oqibatni saqlash maqsadida kelmoq جاء بقصد التواصل و البر		زَارَ
Kechasi (tunda) kelmoq جاء ليلا		طَرَقَ
جاء صدفة دون علم		عَشِيَ
Tasodifan, kutilmaganda ogohlantirmasdan kelmoq		وَأَفَى
جاء و التقى بالمقصود في الطريق		وَرَدَ
Kelmoq va maqsad bilan yo'lda uchrashmoq		وَقَدَّ
Suvni zaxira qilish maqsadida kelmoq جاء بقصد التزود بالماء		
Jamoat bilan kelmoq جاء مع جماعة		

Yuqorida ko'rsatilgan so'zlarning barchasi "kelmoq" ma'nosini ifodalamoqda. Ammo ularning aksariyati o'zining alohida ma'nosiga ham ega. Shuningdek matndan kelib chiqqan holda boshqa biz bilmagan yoki e'tibor bermagan ma'noni ham ifodalashi mumkin. "Kelmoq" ma'nosidagi ayrim so'zlarni gaplar misolida ko'rib chiqamiz:

Dehqon daladan keldi.	أَتَى الْفَلَّاحُ مِنَ الْمَرْعَةِ
Otam masjiddan keldi.	أَتَى وَالِدِي مِنَ الْمَسْجِدِ
Tabiblar kelishdi va uni (mn) ko'rikdan o'tkazishdi.	أَتَى أَطِبَّاءٌ وَ فَحَصُوهَا
Yurtga (mamlakatga) keldi. Bu yerda esa "unga keldi" ma'nosida.	قَدِمَ الْبِلَادَ
Yozuvchi bizning maktabimizga keldi.	كَاتِبُ زَارَ مَدْرَسَتَنَا
30 yilda 200 dan ortiq davlatni ko'rdi (ziyosat qildi).	خَالَ 30 عَامًا، زَارَ أَكْثَرَ مِنْ 200 دَوْلَةٍ
Qo'riqchi uyimizga 2 marta keldi. Allohga shukr, u yerda xech kimni topa olishmadi.	زَارَ الْأَمْنُ مَنْزِلَنَا مَرَّتَيْنِ وَالْحَمْدُ لِلَّهِ أَنَّهُمْ لَمْ يَجِدُوا أَحَدًا هُنَاكَ



Bu missiya davomida Kiyev, Lviv, Zakarpat'e mintaqalariga keldi (ziyosat qildi).	أثناء هذه البعثة زار مناطق كييف ولفيف وزكارباتيا
Qavmga keldi.	وافى القوم (أتاهم، قدم إليهم)
Makonga keldi (yetib keldi)	وافى المكان (وصل إليه)
U vafot topdi, u vafot etdi (aslida: unga ajal keldi, qadar unga keldi).	وافاه الأجل yoki وافاه القدر المحتوم
Uning omadi keldi (dunyo unga keldi).	أقبلت عليه الدنيا
Menga undan xat keldi.	وردني منه المكتوب

Lug'atlarda so'zi bir qancha ma'noni ifodalashi, shuningdek "kelmoq" ma'nosida bayram va ta'til kunlari kirib kelganligini ifodalash uchun ishlatilishi yozilgan⁶. so'zi "(biror joyga) kelmoq, yetib kelmoq" ma'nosidan tashqari, "(biror narsaga) jur'at etmoq, botinmoq, jasorat qilmoq" ma'nolari ham borligi ko'rsatilgan⁷. so'zi esa "yaqinlashmoq, (kimningdir) oldiga kelmoq, hozir bo'lmoq (على)" ma'nosidan tashqari "oldinga intilmoq, nimaningdir vaqti boshlanmoq" ma'nolarini ham ifodalaydi. so'zi ko'pchilik til o'rganuvchilar uchun "taqillatmoq, zarba bermoq, urmoq, (temirni) bolg'alamoq; yo'l chiqarmoq" ma'nolari bilan tanish bo'lsa ham, bu so'zning "yurmoq, (qayergadir) kirmoq, tunda kelmoq" ma'nolari ham mavjud ekan⁸. Bu so'z "kelmoq" ma'nosida nisbatan kam uchraydi. so'zi asosan 2 xil ma'noda qo'llaniladi⁹: 1) qatnamoq, bormoq, kelmoq. 2) (ayol bilan) jinsiy aloqada bo'lmoq, bosmoq. Shuningdek bir qancha iboralarni ifodalash uchun ham ishlatiladi: غشي النعاس mudroq bosdi, u غشي عليه behush bo'lib yiqildi, غشي بالسوط qamchi bilan savalamoq.

Elektron lug'atlarda "kelmoq" so'zini ingliz yoki rus tilida qidirsak 30 dan ortiq sinonimlar qatori ko'rsatiladi. Aslida kontekstdan kelib chiqqan holda 100 dan oshiq so'zlar "kelmoq" ma'nosini ifodalashi mumkin. O'zbek tilida ham balki shundaydir, ammo "kitob mutolaasiga e'tiborsiz sinf" vakillari sifatida biz 4-5 so'z bilan kifoyalanamiz xolos. Arab tilining ajoyibotlarini esa 800-900 yil ilgari yozilgan, ustiga ustak arab bo'lmagan olimlar tomonidan yozilgan kitoblardan o'rganmoqdamiz. Tadqiq etilmagan va ommaga ma'lum qilinmagan ma'lumotlar va til ajoyibotlarini millionlab uchratishimiz mumkin. Yuqorida sharhi berilgan so'z

⁶ Ан-На'им Арабча-ўзбекча луғат. Тузувчилар: Носиров О., Юсупов М., Муҳиддинов М., Раҳматуллаев Ю., Нишонов А. – Тошкент, 2003. -Б. 926.

⁷ Ўша китоб. -Б. 651.

⁸ Ўша китоб. -Б. 495.

⁹ Ўша китоб. -Б. 589.



birgina “kelmoq” ma’nosini ifodalovchi ayrim qarashlar edi. Ilmiy dalillar juda ko‘p. Ularning barchasini o‘rganish uchun katta mehnat, shijoat va asosiysi tilga muhabbat talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдужабборов А. Араб тили – Тошкент, 2005.
2. Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Нашрга тайёрловчи: Шамсиев П. – Тошкент, 1940.
3. Ан-На’им Арабча-ўзбекча луғат. Тузувчилар: Носиров О., Юсупов М., Муҳиддинов М., Раҳматуллаев Ю., Нишонов А. – Тошкент, 2003.
4. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении – Москва, 2001.
5. Маҳмуд Кошғарий “Девону луғатит турк” 3 жилдлик. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Муталлибов С. –Тошкент, 1960-1966.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида (2006-2008).
7. Хасанов М., Абзалова М. Араб тили дарслари – Тошкент, 2016.
8. <https://www.thefreedictionary.com/come>
9. <https://www.almaany.com/en/context/ar-en/come/>
10. <http://arabiclexicon.hawramani.com/search/أقبل#cf-81671>
11. <https://elattaf.hooxs.com/t3499-topic>

